

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60211400 – Vokal san’ati (akademik xonandalik)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023

№ 367
21.08.2023

ISHLAB CHIQILGAN:

O‘zbekiston davlat konservatoriysi.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralarini (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

T/r	MUNDARIJA	bet
1.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) bakalavriat ta'lif yo'naliшining umumiy tafsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik)) ta'lif yo'naliшhi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining tafsifi	4
1.2.1.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari	5
1.2.3.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari	5
2.	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
2.3.1	Kvalifikatsiya	9
2.3.2	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliшhi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	9
2.3.3	60211400 - Vokal san'ati (akademik xonandalik) bakalavriat ta'lif yo'naliшhi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi	9
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i	11

1. 60211400 - *Vokal san'ati (akademik xonandalik)* bakalavriat ta'lif yo'naliшining umumiy tavsisi

60211400 - *Vokal san'ati (akademik xonandalik)* ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lif shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat daturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60211400 - *Vokal san'ati (akademik xonandalik)* ta'lif yo'naliшhi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60211400 - *Vokal san'ati (akademik xonandalik)*** ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lif yo'naliшhi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lif yo'naliшining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;
- oliy ta'lif tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- Oliy ta'lif tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60211400 - *Vokal san'ati (akademik xonandalik)* ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsisi.

1.2.1. 60211400 - *Vokal san'ati (akademik xonandalik)* ta'lif yo'naliшhi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari:

60211400 - *Vokal san'ati (akademik xonandalik)* ta'lif yo'naliшhi – fan, ta'lif va san'at sohasidagi bakalavriat ta'lif yo'naliш bo'lib, san'at sohasidagi umumiy o'rta va o'rta maxsus, professioanal ta'lif muassalarida ta'lif yo'naliшhiga

oid fanlarni o‘qitish, san’at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxona va tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi san’atga oid ishlar bilan bog‘liq tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni, san’at ta’lim sohasining tegishli yo‘nalishlarida kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60211400 - *Vokal san’ati (akademik xonandalik)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

– san’at sohasidagi tegishli jarayonlar, ijodiy faoliyat jarayonlari, mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san’at sohasining axborot va dasturiy ta’mnoti, yaratilgan asarlar va ularning targ‘iboti, ijodiy g‘oyalarini loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari, o‘quv-tarbiya jarayoni.

60211400 - *Vokal san’ati (akademik xonandalik)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari Opera va musiqali teatr artist-vokalisti, yakka akademik xonanda, kamer xonanda, illustrator, akademik xonandalik fanlari o‘qituvchisi kvalifikatsiyalariga ega bo‘lish mumkin.

1.2.3. 60211400 - *Vokal san’ati (akademik xonandalik)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ijodiy-ijrochilik;
- umumiyo‘rta va o‘rta maxsus, professional, mактабдан ташқари та’лим muassasalari hamda musiqa va san’atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
- ijtimoiy-ma’rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. 60211400 - *Vokal san’ati (akademik xonandalik)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari:

60211400 - *Vokal san’ati (akademik xonandalik)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:

- musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog‘liq ijodiy ishlarni olib borish;
- ularni ijro etish ko‘nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;
- ijro etilayotgan asarlarning mazmuni, shakli va uslubini baholash;
- turli xil jamolarni biriktirgan holda musiqiy asarlarning ijrosiga rahbarlik qila olish;

- musiqiy asarlarning badiiy konsepsiyasini yaratib, teatr-konsert muassasalari, orkestr va ansamblarda namoyish qilish;
- musiqaning mazmuni, shakli va uslubini tushunish;
- ijrochilik va improvizatsiya ifodalilikni vositalari, musiqaning mazmuni, shakli va uslubini, tushunish;
- ijro etilayotgan asarning musiqiy obrazi, shakli va ma’nosini tinglovchiga yetkazishni; o’zining shaxsiy ijro uslubini yaratish;
- jamoa ijrochiligi *qobiliyatiga ega bo’lishi kerak.*

Umumiy o’rta va o’rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- umumiy o’rta va o’rta maxsus, professional, maktabdan tashqari ta’lim tizimining ixtisoslikka mos ta’lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandard o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullarini ishlab chiqish va o‘tkazish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;
- mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;
- o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;
- musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta’lim jarayoniga singdirish;
- o‘quv jarayonini, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

Ijtimoiy-ma’rifiy faoliyatda:

- kasbiy va havaskorlik badiiy jamoalarda rahbar va maslahatchi sifatida keng ko‘lamda musiqiy-ma’rifiy ishlarni olib borish, milliy va jahon musiqa ijodiyoti, ijrochilik yutuqlarini targ‘ib etish;
- yoshlar bilan musiqiy-tarbiyaviy ishlar bilan shug‘ullanish, aholi tarkibidagi har xil guruh va qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olishni uddalash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;
- kompozitorlik va kompozitorlik ko‘nikmalarini amaliyatga tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi kompozitorlik, musiqiy asar yoki uni qayta ishlash ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda musiqa san’atiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- musiqa san’atiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- kasbiy faoliyat ob’ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihibalarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o’tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish.

2. 60211400 - Vokal san’ati (akademik xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- barqaror rivojlanish va media falsafa masalalarini kasbiy faoliyatda qo‘llay olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;

– axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– ta’lim yo‘nalishi ixtisoslik fanlarini o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishi;

– Akademik xonandalik ijrochiligi bilan ishlash fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Mashg’ulotlar davomida ixtisoslik sinfida olib borilayotgan ishlarni davom ettirgan holda talaba asarlarni tahlil qilish, ularni garmonik tuzilishi, intervallarni eshitish, so‘z, talaffuz ustida ishlash, musiqiy dinamikani o‘rgatib, ifodali ijro etish ko‘nikmalari rivojlantirish lozim;

– jo‘rnavoz bilan ishlashda ixtisoslik sinfining axamiyati katta bo‘lmog‘i kerak. Talabaning asarlarni mustaqil o‘rganish uchun jo‘rnavoz bilan hamkorlikda kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirishida ushbu fanning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Jo‘rnavoz bilan ishlash fani ixtisoslik sinfida birinchi kursning birinchi va ikkinchi semestrda o‘tiladi. Jo‘rnavoz bilan ishlash fani ixtisoslik sinfida akademik xonandalik ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga ko‘makdosh maxsus fanlardan biridir. Jo‘rnavoz bilan ishlash fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Mashg’ulotlar davomida ixtisoslik sinfida olib borilayotgan ishlarni davom ettirgan holda talaba asarlarni tahlil qilish, ularni garmonik tuzilishi, intervallarni eshitish, so‘z, talaffuz ustida ishlash, musiqiy dinamikani o‘rgatib, ifodali ijro etish ko‘nikmalari rivojlantirish lozim;

– hamkorlik aloqalari va ommaviy nutqlarni o‘tkazish, muzokaralar, uchrashuvlar, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish qobiliyati;

– madaniyat va san’at sohasidagi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda ta’lim jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ta’lim jarayoni sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini hisobga olgan holda ishlab chiqishda mohirlik;

– kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

2.3. Umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalar umumiylar va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmasetligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg’ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘sishimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga hizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarini shakillantirishga qaratiladi;

Pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratni oshirishga qaratiladi.

2.3.1 Kvalifikatsiya: Xonanda, o‘qituvchi.

2.3.2 60211400 - *Vokal san’ati (akademik xonandalik)* ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar

O‘quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6360	212
Tanlov fanlar	300	10
Malakaviy amaliyot	390	13
Bitiruv malakaviy ishi	150	5

2.3.3 60211400 - *Vokal san’ati (akademik xonandalik)* bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyluklarda hajmi soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6360	212	
1.01	<i>AXII1820</i>	Akademik xonandalik ijrochiligi	600	20	1--8
1.02	<i>OTM2639</i>	Opera tayyorlov mashg‘uloti	1170	39	3--8
1.03	<i>JII1808</i>	Jo‘rnavoz bilan ishlash (ixtisoslik sinfida)	240	8	1--8
1.04	<i>KX1213</i>	Kamer xor	390	13	1,2
1.05	<i>JMT1210</i>	Jahon musiqasi tarixi	300	10	2,3
1.06	<i>O'MT1310</i>	O‘zbek musiqasi tarixi	300	10	1--3
1.07	<i>O'MN2105</i>	O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi	150	5	3
1.08	<i>AO'M2105</i>	An‘anaviy o‘zbek musiqasi	150	5	4
1.09	<i>SHMT3105</i>	Sharq xalqlari musiqa tarixi	150	5	5
1.10	<i>SIO1205</i>	Solfedjio	150	5	1,2
1.11	<i>GYA1205</i>	Garmoniya	150	5	1,2
1.12	<i>MAT2205</i>	Musiqa asarlari tahlili	150	5	3,4
1.13	<i>PYA3205</i>	Polifoniya	150	5	5,6

1.14	<i>FNO1404</i>	Fortepiano	120	4	1--4
1.15	<i>MPP3105</i>	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	6
1.16	<i>KP4102</i>	Kasbiy pedagogika	60	2	8
1.17	<i>XT2410</i>	Xorijiy til	300	10	4--7
1.18	<i>O'YT1105</i>	O'zbekistonning eng yangi tarixi	150	5	1
1.19	<i>O'RT1102</i>	O'zbek (rus) tili	60	2	2
1.20	<i>DIN4104</i>	Dinshunoslik	120	4	8
1.21	<i>FFA4104</i>	Falsafa	120	4	8
1.22	<i>XDU4105</i>	Xonandalikdan dars berish uslubiyoti	150	5	7
1.23	<i>AMA4205</i>	Aktyorlik mahorati asoslari. Sahna harakati asoslar	150	5	7,8
1.24	<i>KMX2506</i>	Kamer xonandalik	180	6	3--7
1.25	<i>IST2104</i>	Ijrochilik san'ati tarixi (akademik xonandalik)	120	4	4
1.26	<i>GSO3104</i>	Grim va sahnaviy obraz	120	4	6
1.27	<i>AIT1205</i>	Amaliy italyan tili	150	5	1,2
1.28	<i>VAN3105</i>	Vokal ansamblı	150	5	4
1.29	<i>RS4407</i>	Raqs	210	7	4--8
2.00		Tanlov fanlar	300	10	3--7
		JAMI:	6660	222	
		Malakaviy amaliyot	390	13	2,4,6,8
		Bitiruv malakaviy ishi	150	5	8
		HAMMASI:	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lif standarti, malaka talablari, o'quv reja, modul, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning ta'lif dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, kasb ta'limi, kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta'lifda informatsion texnologiyalar, kasbiy ta'lif didaktikasi, kasbiy pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, uslubiyot, vokal san'ati, xonandalik, opera san'ati, kamer xonandalik, opera librettosi, nafas tayanchi, rezonatorlar, registrlar, diapazon, yuqori pozitsiya, musiqiy ifodalilik, musiqiy obraz tahriri, musiqiy obraz talqini, o'zbek maqom san'ati, ijrochilik uslublari, mantiqiy yondashuv, ariya mavzulari yaxlitligi, vokal turkum, ijodiy uslub, soprano, messo-soprano, kontralto, tenor, bariton, bas, ariya, duet, trio, vokal ansambl, klassitsizm.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar istemolchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat konservatoriysi

Rektor  K.T.Urinbayev

2023 yil « 27 » 06

M.O'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tafbiq etish markazi

Direktor  Sh.U.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.


O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti

Rektor.v.v.b  E.O'Shermanov

2023 yil « 27 » 06

M.O'.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari
uyushmasi

Rais  R.A.Abdullayev

2023 yil « 27 » 06

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat va turizm vazirligi "Ta'lif va ilm
fanni rivojlantirish boshqarmasi"

Boshqarma boshlig'i  N.K.Kasimov

2023 yil « 27 » 06

M.O'.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa
san'ati instituti

Rektor  O.A.Nazarbekov

2023 yil « 27 » 06

M.O'.

O'zbekiston davlat filarmoniysi

Direktor  A.Y.Tojiboyev

2023 yil « 27 » 06

M.O'.



**O'zbekiston davlat konservatoriysi
60211400 – Vokal san'ati (akademik xonandalik)
ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasini ishlab
chiquvchilar, oliy ta'lif muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilar
o'rtaida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“27” 06 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - O'zbekiston davlat konservatoriysi rektori K.T.Urinbayev, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektor.v.v.b E.O'.Shermanov, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi R.A.Abdullayev, O'zbekiston davlat filarmoniyasi direktori A.Y.Tojiboyev birgalikda O'zDKda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'naliishning malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60211400 – Vokal san'ati (akademik xonandalik) ta'lif yo'naliishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-som farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-112-som Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtamasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-279-som Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjalr, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'matilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston davlat konservatoriysi rektori K.T.Urinbayev



E.O'.Shermanov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektor.v.v.b



R.A.Abdullayev

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi



A.Y.Tojiboyev

O'zbekiston davlat filarmoniyasi direktori